



MOLIYA VA BANK ISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI ILMIY JURNALI



Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingi: O'zbekistonda Xufiyona iqtisodiyotni kamaytirish hamda biznes muhitini yaxshilashning institutsional asoslari va yangi imkoniyatlari

Qayumov Ibroxim Ilhomjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi Xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash boshqarmasi davlat soliq bosh inspektori

E-mail: ibrokhimkayumov@gmail.com

Maqola haqida ma'lumot

Topshirilgan vaqti: 10.09.2025

Qabul qilingan vaqti: 11.09.2025

Tayanch so'z va iboralar:

Barqarorlik reyting, xufiyona iqtisodiyot, mezon, tadbirkorlik sub'ektlari; soliq intizomi; rag'batlantirish, subsidiyalar, preferensiyalar, soliq imtiyozlari, soliq tushumlari, soliq ma'murchiligi.

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingi joriy etilishi, uning huquqiy asoslari va respublikamiz hududida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarda soliq madaniyatini shakllantirish, ishonchli tadbirkorlarni aniqlash, soliqqa va tashqi iqtisodiy faoliyatga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, qonun doirasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni qo'shimcha rag'batlantirish hamda tadbirkorlarni huquqiy va iqtisodiy savodxonligini oshirish tahlil qilingan. Xorijiy davlatlar tajribasi asosida reyting tizimining afzalliklari va kamchiliklari o'rganilgan. Statistik ma'lumotlar asosida reyting ko'rsatkichlari tahlil qilingan va uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tahlil, qiyosiy tahlil, statistik usullardan foydalanilgan.

Business Sustainability Rating: Institutional Frameworks and New Opportunities for Reducing the Shadow Economy and Improving the Business Environment in Uzbekistan

Qayumov Ibroxim Ilhomjon o'g'li

Chief State Tax Inspector, Department of Risk Analysis and Taxpayer Segmentation, Tax Committee of the Republic of Uzbekistan

E-mail: ibrokhimkayumov@gmail.com

ARTICLE INFO

Received: 10.09.2025

Accepted: 11.09.2025

Key words: Sustainability rating; shadow economy; criteria; business entities; tax discipline; incentives; subsidies; preferences; tax benefits; tax revenues; tax administration.

Abstract

This article analyzes the introduction of the business entities' sustainability rating in Uzbekistan, its legal foundations, and its role in shaping tax culture among entrepreneurs operating in the country. The study highlights how the rating system contributes to identifying reliable entrepreneurs, preventing tax and foreign economic activity violations, providing additional incentives for law-abiding businesses, and improving the legal and economic literacy of entrepreneurs. Based on international experience, the advantages and disadvantages of the rating system have been examined. Statistical data have been used to analyze rating indicators, and proposals for its improvement have been developed. The research methodology includes analysis, comparative analysis, and statistical methods.

barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri – bu iqtisodiy faoliyatning shaffofligi va qonuniylik darajasidir. Shu nuqtai nazardan, **xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish masalasi** har qanday mamlakatlarda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xufiyona iqtisodiyotning mavjudligi iqtisodiy islohotlar samaradorligiga, davlat byudjeti daromadlari hajmiga, shuningdek, tadbirkorlik muhitining raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan so'nggi yillarda mamlakatimizda ushbu jarayonni qisqartirish, norasmiy faoliyatni rasmiy iqtisodiyotga integratsiya qilish va tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, so'nggi yillarda soliq tizimini soddalashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va byurokratik to'siqlarni kamaytirish orqali xufiyona iqtisodiyotni qisqartirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayonlarda 2024 yil 23 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-39-son qarori bilan joriy etilgan qarori **tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingi** alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot mavzusi – tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingi va uning xufiyona iqtisodiyotni qisqartirishdagi ahamiyati – zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda keng muhokama qilinayotgan dolzarb yo'nalishlardan hisoblanadi, barqarorlik reytinglari orqali tadbirkorlik muhitini baholash, soliq intizomini mustahkamlash va xufiyona iqtisodiyot ulushini kamaytirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Avvalo, xalqaro tadqiqotlarda iqtisodiy faoliyatning shaffofligi va tadbirkorlik muhitini baholashga oid mezonlar keng o'rganilgan. Jahon bankining Doing Business hisobotlari (World Bank, 2020) hamda Transparency Internationalning korrupsiyani qabul qilish indeksida qonun ustuvorligi, soliq yuki va raqobatbardosh muhit iqtisodiy barqarorlikning asosiy ko'rsatkichlari sifatida belgilangan. Shu jihatdan, barqarorlik reyting tizimi tadbirkorlik sub'ektlari uchun rag'bat mexanizmlarini shaffof ifoda etishda muhim ahamiyatga ega.

Sh.Nurmatov (2024) Qozog'istonda joriy etilgan «Ishonchli hamkorlar reestri» tadbirkorlar faoliyatida shaffoflikni ta'minlash va ularning bozordagi nufuzini oshirishda xizmat qilmoqda, shuningdek, Rossiya Federatsiyasidagi "Iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlari ishonchli bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarining nodavlat reestri" esa moliyaviy barqarorlik, soliq intizomi va korporativ ishonchga asoslangan mezonlar bilan ishlaydi.

Bu ikki tajriba O'zbekistonda joriy etilgan reyting tizimi uchun amaliy qiyosiy tahlil imkoniyatlarini taqdim etadi.

T.Nutfulloev (2024) Barqarorlik reytingi davlat va tadbirkorlar o'rtasidagi o'zaro ishonchning oshishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi.

I.Davranov (2024) tadbirkorlarning barqarorlik reytingini joriy qilinishi soliq organlari ish faoliyatida samaradorligi oshishi va xufiyona iqtisodiyotni kamayishiga xizmat qilishini qayd etgan.

Tahlil qilingan adabiyotlardan ko'rinib turibdiki, tadbirkorlik sub'ektlari uchun barqarorlik reytingini joriy

etish xufiyona iqtisodiyotni qisqartirish, soliq intizomini kuchaytirish va qonuniy ish yurituvchi tadbirkorlarni rag'batlantirishda xizmat qiladi.

Tizimning huquqiy-tashkiliy asoslari va maqsadlari

2023 yil 18 avgust kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, soliqlarni o'z vaqtida to'lab, qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni rag'batlantirish maqsadida 2024 yil 23 yanvardagi PQ-39-son qarori bilan «Barqarorlik reytingi» joriy etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

Tahlil va sintez – barqarorlik reytingiga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda amaldagi statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil – O'zbekistonda joriy etilgan reyting tizimi Qozog'iston va Rossiya tajribasi bilan taqqoslandi. Statistik usullar – tadbirkorlik sub'ektlarining reyting bo'yicha o'sish ko'rsatkichlari jadval va diagrammalar orqali baholandi. Induktiv va deduktiv usullar – mavjud ma'lumotlardan umumiy xulosalar chiqarildi hamda xulosalardan kelib chiqqan holda takliflar ishlab chiqildi.

Reytingni baholash metodikasi va mezonlari

Tadbirkorlik sub'ektlarining reyting ballari jami 23 ta mezonlar orqali 100 ballik sistemada hisoblab chiqariladi.

Bunda ballarni umumiy, kamaytiruvchi, qo'shimcha ballar beruvchi mezonlarga bo'linadi.

Birinchi, tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatiga daxldor 10 ta umumiy mezonlar bo'yicha maksimal 100 balgacha beriladi;

Ikkinchi, 4 ta rag'batlantiruvchi mezonlar bo'yicha 35 balgacha qo'shimcha ballar beriladi. Bu degani tadbirkor 100 dan ham ortiq ball to'plashi mumkin;

Uchinchi, shu bilan birga 9 ta kamaytiruvchi mezonlar bo'yicha 65 balgacha kamaytiriladi.

Reyting ballari qanday hisoblashini ko'rib chiqamiz.

Umumiy mezonlar:

1-mezon. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish davomiyligi (yashovchanlik davri) – Davlat ro'yxatidan o'tgan sanasi bo'yicha Faoliyat ko'rsatgan har bir yili uchun 2 balldan, 5 yil va undan ortiq yil uchun 10 ball beriladi.

2-mezon. YeBITDA rentabellik darajasi sub'ektning sof foydasiga, foiz to'lovlari, amortizatsiya va foyda solig'i summasi qo'shib, sof tushumga bo'lish va 100 ga ko'paytirish orqali aniqlanadi. YeBITDA rentabellik darajasi sub'ekt faoliyat ko'rsatayotgan soha korxonalarining o'rtacha ko'rsatkichidan kelib chiqib ball beriladi.

Mezonni quyidagicha hisoblanadi:

A) Jami daromad summasi (tovarlarni va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar yig'indisi);

B) Jami xarajat summasi (sotilgan tovarlar va xizmatlar tannarxi hamda zararlar);

C) Foiz to'lovlari (foizlar va chiqimlar bo'yicha xarajatlari);

D) Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi summasi;

F) Sof tushum (tovarlarni va xizmatlarni realizatsiya summasidan akviz solig'i chegirilgan holat);

$$\text{EBITDA bo'yicha rentabellik darajasi} = \frac{(A - B) + S + D}{F} * 100$$

3-mezon. Tadbirkorlik sub'ekt egaligida noturar ko'chmas mulk ob'ektlari mavjud bo'lsa — 10 ball, ijara asosida foydalanilayotgan bo'lsa — 7 ball beriladi. Bunda, oilaviy korxona ishtirokchi va advokatlik byurosini ta'xis etgan advokatga tegishli turar joylar ham hisobga olinadi.

4-mezon. Bir nafar xodimga to'g'ri keladigan ish haqi jamg'armasining nisbati Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kelib chiqib ball beriladi.

5-mezon. Soliq hisobotlarining belgilangan muddatlarda taqdim etilishini baholashda kalendar oyida hisobot topshirish muddati kelgan barcha soliq turlari hisobga olinadi.

6-mezon. Hisoblangan soliqlarning belgilangan muddatlarda to'lanishi muddati kelgan hisoblangan soliq summasi hisobga olinadi.

7-mezon. Hisoblangan soliqlarning to'lov topshiriqnomasi orqali to'langanligi yoki soliq organining inkasso topshiriqnomasi orqali undirilganligi hisobga olinadi.

Mazkur mezon bo'yicha baholashda kalendar oyda barcha soliq turlari hisobga olinadi.

8-mezon. Elektron hisobvaraq-fakturalarni (EHF) qonunchilikda belgilangan muddatlarda rasmiylashtirish holati bo'yicha ball berilishida, hisobot davrida tovarlar jo'natilgan (topshirilgan) yoki xizmatlar

ko'rsatilgan, ishlar bajarilgan kalendar sanada rasmiylashtirilgan EHFlar bo'yicha yig'ilgan summaning jami EHFlardan yig'ilgan tovar aylanmasidagi ulushi (foizi) kelib chiqib ball beriladi.

9-mezon. Yil boshiga TMZ qoldig'i (oylarga teng ulushlarda) bo'lib hamda elektron hisobvaraq-fakturalar orqali yil davomida xarid qilingan (jumladan, import) tovarlar, yoki xomashyoga mutanosib ravishda tovarlar realizatsiyasi (jumladan, eksport) qay darajada amalga oshirilganligidan kelib chiqib ball beriladi.

10-mezon. Soliq organlari axborot tizimlaridan foydalangan holda o'tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlil natijasida (Avtokameral avtomatlashtirilgan axborot tizimida) aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilishi yoki asoslantirilishidan kelib chiqib ball beriladi.

Kamaytiruvchi mezonlar:

11-mezon. Tadbirkorlik sub'ekti joylashgan joyini 12 oy davomida o'zgartirishi va qayta ro'yxatdan o'tkazishi aniqlansa;

12-mezon. Korxonaning rahbari oxirgi 12 oy davomida 3 va undan ortiq o'zgartirsa;

13-mezon. Korxona rahbari oldin (so'nggi 12 oy davomida) bankrotlik asosida tugatilgan, jinoiy o'tmishga ega bo'lgan korxonaga rahbarlik qilgan bo'lsa;

14-mezon. Taqdim etilgan soliq hisobotlariga soliq to'lovchining o'zi tomonidan ixtiyoriy taqdim etilishi holatlari aniqlansa;

15-mezon. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisining maxsus guvohnomasi bekor qilingan yoki to'xtatilgan taqdirda;

16-mezon. Tadbirkorlik sub'ektining soliq qarzini undirish bo'yicha

mol-mulkiga qaratilganlik holatlari aniqlansa;

Soliq qarzi to'liq to'langandan keyin kamaytirilgan ballar olib tashlanadi.

17-mezon. Korxona rahbarining mansabdor shaxslariga nisbatan soliqqa oid huquqbuzarliklari uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik choralari ko'rilganligi aniqlansa;

18-mezon. Hisobvaraq-fakturalarda yoki nazorat-kassa texnikasi cheklarida olingan tovarlar (xizmatlar) nomenklaturasiga yoxud faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga va amalga oshiriladigan turlariga muvofiq bo'lmagan identifikatsiya kodlarini aks ettirish holatlari aniqlansa;

19-mezon. Tadbirkorlik sub'ektining kreditor qarzdorligi mavjud bo'lgan holda kreditorlar tomonidan sudga da'vo arizalari kiritilganda;

Rag'batlantiruvchi mezonlar:

20-mezon. Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan «Temir daftar», «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» va ijtimoiy reestrtdagi shaxslar, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslar bandligi ta'minlanganda;

21-mezon. 12 oy oldingi hisobot davriga nisbatan (mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan ortiq ish haqi olgan) xodimlar sonining yillik o'rtacha soni oshsa;

22-mezon. Iqtisodiy faoliyat turlariga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha bir oylik hisoblangan soliq summasining o'rtacha nisbati (QQS to'lovchilar uchun) Sohaning o'rtacha hisoblangan summasining 1,1 barobaridan yuqori bo'lsa (yoki eksport qilishdan olingan daromadlar jami daromadning kamida 50 foizini tashkil etsa) ball beriladi (bunda bir oylik QQS to'lov summasi BHMning o'n baravaridan kam bo'lmasligi lozim).

23-mezon. Iqtisodiy faoliyat turlariga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha bir oylik hisoblangan soliq summasining o'rtacha nisbati (AOS to'lovchilar uchun) Sohaning o'rtacha hisoblangan summasining 1,1 barobaridan yuqori bo'lsa (yoki eksport qilishdan olingan daromadlar jami daromadning kamida 50 foizini tashkil etsa) ball beriladi (bunda bir oylik QQS to'lov summasi BHMning o'n baravaridan kam bo'lmasligi lozim).

Юқори	AAA	96-100 баллар
	AA	91-95 баллар
	A	86-90 баллар
Ўрта	BBB	76-85 баллар
	BB	66-75 баллар
	B	56-65 баллар
Қониқарли	CCC	51-55 баллар
	CC	36-50 баллар
	C	26-35 баллар
Қуйи	D	25 баллгача

1 rasm. Reyting doirasida tadbirkorlar quyidagi toifalarga ajratiladi.

Tadbirkorlik sub'ektlari uchun qo'llab-quvvatlash choralari ya'ni subsidiya, imtiyoz va boshqa engillik hamda preferençiyalar reyting asosida belgilandi.

Yuqori barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik sub'ektlari uchun quyidagi rag'batlantirish choralari joriy etildi:

a) «AAA» toifadagi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi (jinoiy ishlar doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno), shuningdek, ushbu toifadagi tadbirkorlik sub'ektlariga qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash (qaytarish) bir kun muddatda tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi;

b) 4 va 5-toifadagi tumanlarda faoliyat yuritayotgan «AA» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik sub'ektlariga bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotilgan davlat aktivlari bo'yicha dastlabki to'lov summasi 35 foizdan kam bo'lgan hollarda qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida yillik foizlar hisoblanmaydi hamda bo'lib-bo'lib to'lash muddati miqdoridan qat'iy nazar, 7 yil (teng ulushlarda) etib belgilanadi;

v) «A» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik sub'ektlariga soliqlar bo'yicha (qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno) mavjud ortiqcha to'lov summasini qaytarish uchun kun muddatda amalga oshiriladi;

g) «VVV» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik sub'ektlariga tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini o'zaro hisobga olish tartibi tatbiq etiladi.

yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga subsidiyalar, soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferençiyalar (keyingi o'rinlarda — qo'llab-quvvatlash choralari) ularning reyting darajasidan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda joriy etiladi:

a) qo'llab-quvvatlash choralari «V» va undan yuqori reyting darajasiga ega tadbirkorlik sub'ektlariga amaldagisiga nisbatan quyidagi miqdorlarda taqdim etiladi:

«AAA» toifa — amaldagi miqdorning 100 foizi;

«AA» toifa — amaldagi miqdorning 90 foizi;

«A» toifa — amaldagi miqdorning 80 foizi;

«VVV» toifa — amaldagi miqdorning 70 foizi;

«VV» toifa — amaldagi miqdorning 60 foizi;

«V» toifa — amaldagi miqdorning 50 foizi;

b) qo'llab-quvvatlash choralari ro'yxatdan o'tganiga olti oy bo'lmagan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrda PF-287-son Farmoniga muvofiq 4 va 5-toifadagi tumanlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlariga ularning reyting darajasidan qat'iy nazar amaldagi miqdorlarda taqdim etiladi;

v) tadbirkorlik sub'ektlarining reyting darajasi:

pasaygan taqdirda, qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etish uchun davomida saqlab qolinadi;

yuqorilagan taqdirda, qo'llab-quvvatlash choralari keyingi oydan boshlab yangilangan reyting darajasiga muvofiq miqdorlarda taqdim etiladi.

2026 yil 1 mayga qadar «A» va undan yuqori toifadagi to'qimachilik va tikuv-trikotaj yo'nalishidagi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi (jinoiy ishlar doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno), shuningdek, ushbu toifadagi tadbirkorlik sub'ektlariga qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash (qaytarish) bir kun muddatda tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi;

banklarga to'qimachilik va tikuv-trikotaj yo'nalishidagi eksportchilarning eksport shartnomasi bo'yicha to'lov talab qilish huquqini, jumladan «Savdoni rivojlantirish kompaniyasi» AJ mablag'lari hisobidan bank xizmatlari uchun xarajatlarni chegirgan holda sotib olishga ruxsat beriladi. Bunda, pul kelib tushishini kafolatlash uchun eksportchi bankka o'z mulkini garovga qo'yadi yoki boshqacha ta'minot taqdim etadi;

«A» va undan yuqori toifadagi to'qimachilik va tikuv-trikotaj yo'nalishidagi eksportchi korxonalarga akkreditivni garovga olgan holda uning 70 foizi miqdorida ajratiladigan kreditlar uchun banklarga «Savdoni rivojlantirish kompaniyasi» AJ tomonidan mablag' taqdim qilish tizimi joriy qilinadi.

2024 yil 1 sentyabrdan boshlab Savdoga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan quyidagi moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari joriy qilingan:

a) nufuzli xalqaro brendlar ro'yxatiga kiritilgan brend egalari bilan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzgan yuqori va o'rta barqarorlik reytingidagi tadbirkorlik sub'ektlari (keyingi o'rinlarda — brend hamkorlari) uchun:

xalqaro standartlarni joriy qilish, ekologik va muvofiqlik bo'yicha sertifikatlash, shuningdek, mazkur qarorga 2-ildavda keltirilgan ro'yxatdagi mutaxassislarining brend egalari hisoblangan korxonalarda, jumladan, ularning ishlab chiqarish maydonlarida malakasini oshirish xarajatlarini qoplash;

nufuzli xalqaro brendlar ostida kamida 1 million AQSh dollari miqdorida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilganda — grantlar ajratish;

Savdoga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyaviy yordam olish bo'yicha tashabbuskorlarning arizasi barqarorlik reytingida «AAA», «AA», «A», «BBB», «BB», «B» reytingga ega bo'lgan korxonaga amalga oshiriladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi

Barqarorlik reytingini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilgan. Masalan, Qozog'istonda Ishonchli hamkorlar reestri yuritiladi. Reestrni yuritilishidan ko'zlangan maqsad:

– Mahalliy va xorijiy tadbirkorlik sub'ektlarini mahalliy tadbirkorlik sub'ektlari orasidan hamkorlarni tanlash uchun zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash orqali tadbirkorlik faoliyatini, shu jumladan tashqi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish;

– Ishlab chiqarilayotgan mahalliy mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning raqobatbardoshlini oshirishga ko'maklashish;

– Ichki bozorda va xorijda mahalliy tadbirkorlik sub'ektlariga ishonchni oshirish.

– Reestrda to'liq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etgan hamda Nizomda belgilangan mezonlarga javob beradigan barcha mulkchilik shaklidagi va tashkiliy-huquqiy shakldagi tadbirkorlik sub'ektlari kiritiladi.

– Shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlarini Reestrda kiritish mezonlari mazkur Nizomning ishonchlilik darajasini baholash metodikasi bilan belgilanadi.

Rossiya Federatsiyasida «Iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlari ishonchli bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarining nodavlat reestri» yuritiladi.

Reestrda kiritilish shartlari:

– o'z faoliyatini so'nggi 3 yildan beri davom ettirayotgan bo'lish;

– tashkilot haqida ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish;

– qayta tashkil etish, tugatish va bankrotlik holatida bo'lmaslik;

– soliqlar, yig'imglar, va boshqa to'lovlardan qarzdorlikni bo'lmasligi;

- insofsiz etkazib beruvchilar hamda pudratchilar reestrida bo'lmaslik;
- yil yakuniga ko'ra, tashkilotning moliyaviy ahvoli «SSS – qoniqarsiz» holatda bo'lmasligi;
- reestrga kiritilish uchun to'lanadigan bir martalik to'lovni to'lagan bo'lishi.


Tahlil va natijalar muhokamasi

Joriy qilingan davrda yuqori reytingli tadbirkorlar soni 1 655 (shundan AAA 112)tani tashkil qilgan bo'lsa, 2025 yil sentyabr holatiga ko'ra ularning soni 13 586 (shundan AAA 13 586 ta)taga etdi. Bu ko'rsatkich 8,2 baravarga o'sishni anglatadi. Ayniqsa, AAA reytingi bo'yicha sezilarli natija qayd etilib, tadbirkorlar soni 112 tadan 2 386 tagacha ko'paydi, ya'ni 21,3 baravarga oshdi.

O'rta reytingli tadbirkorlar soni joriy davrda 52 796 tadan 103 200 tagacha etib, 2 baravarga o'sdi.

Qoniqarli reytingdagilar soni esa deyarli barqaror qolib, 238 574 tadan 244 337 tagacha etdi (1,0 baravar o'sish).

Quyi reytingli tadbirkorlar soni esa sezilarli kamayib, 270 097 tadan 191 707 tagacha tushdi, bu 1,4 baravarga qisqarishni anglatadi.



2 rasm. Reytingdagi tadbirkorlar ko'rsatkichlari o'sishi

Yuqori reytingdagi tadbirkorlarning 4,4 mingtasi xizmat ko'rsatish, 3,9 mingtasi savdo, 1,5 mingtasi sanoat, 204 tasi qishloq xo'jaligi va 722 tasi qurilish sohaslariga to'g'ri kelmoqda.


Yuqori reytingdagi tadbirkorlarning 4,3 mingtasi Toshkent shahariga, 1,2 mingtasi Toshkent, 1,2 mingtasi Samarqand, 852 tasi Farg'ona viloyatlariga to'g'ri kelmoqda.

Soliqlarni belgilangan muddatda to'laydigan korxonalar soni 120,2 mingtaga ortdi (84,2 mingtadan 204,4 mingtaga);

Soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarish, ya'ni soliq to'lovlarini to'lov topshiriqnomasi orqali to'lovchi korxonalar soni

185,3 mingtaga ortdi (129,8 mingtadan 315,1 mingtaga);

Ishchi-xodimlar soni 134,5 mingta korxonada 843,0 mingtaga ortdi (1.881,9 mingtadan 2.724,9 mingtaga);




3 rasm. Reyting tizimi joriy qilingandan bugungi kunga qadar erishilgan natijalar

AAA reytingdagi tadbirkorlarning 1 725 tasiga 3,5 trln so'mlik QQS summasi 1 kunda tekshiruvlarsiz qaytarib berildi;

Soliq hisobotlarini belgilangan muddatda taqdim etayotgan tadbirkorlar soni 95,4 mingtaga ortdi (230,7 mingtadan 326,1 mingtaga);

Ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar bandligini ta'minlagan korxonalar soni 45,0 mingtaga ortdi (50,4 mingtadan 95,4 mingtaga) hamda bandligini ta'minlagan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar soni 84,4 mingtaga (315,6 mingtadan 400,0 mingtaga) ortdi.

Hisobvara-fakturalarning belgilangan muddatlarda rasmiylashtirilishi joriy yilning boshiga nisbatan 9,8 mlntaga ortib 26,4 mlntaga etgan.



4 rasm. Mehnatga haq to'lash jamg'armasi hamda ish haqqi miqdori o'sishi

Mehnatga haq to'lash jamg'armasi 290,2 mingta korxonada 2,4 trln so'mga (22,9 trln so'mdan 25,3 trln so'mga) hamda o'rtacha ish haqqi miqdori 0,7 mln so'mga (3,8 mln so'mdan 4,5 mln so'mga) ortdi.

Xulosa va takliflar

Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingida yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishga doir mezonlar ishlab chiqish hamda mavjudlari takomillashtirish.

Vazirlar Mahkamasining «Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 2024 yil 30 yanvardagi 55-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish:

Yuqori barqarorlik reytingiga erishish maqsadida yolg'on ma'lumotlarni taqdim etgan (ballarini sun'iy oshirgan) yoki shubhali korxonalar reestriga kiritilgan hamda Huquqni muhofaza qilish organlar tomonidan shu turdagi holatlar aniqlangan tadbirkorlik sub'ekti hamda uning ta'sischi yoki rahbari tomonidan yangi tashkil etilgan tadbirkorlik sub'ektlarini baholashda bunday holatlar tasdiqlangan sanadan boshlab 12 oy davomida «VV» reyting shkalasidan yuqori bo'lmashligini ta'minlash;

Faoliyat ko'rsatish davri 6 oy bo'lmagan tadbirkorlik sub'ektlarini baholashda «AA» reyting shkalasidan yuqori bo'lmashligini ta'minlash;

Yuridik shaxs manzilini o'zgartirish, qo'shib olish ko'rsatkichini baholashda oxirgi 12 oy davomida joylashgan manzilini o'zgartirilgan bo'lsa yoki tarkibiga boshqa yuridik shaxs qo'shib olingan bo'lsa ballar yig'indisidan 5 ball chegirish;

Soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralari qo'llanilganligi ko'rsatkichini baholashda huquqbuzarlik (jinoiyat) sodir etilgan mansabdor shaxslar tomonidan tashkil etilgan barcha tadbirkorlik sub'ektlaridan ball chegirish;

Tadbirkorlik sub'ektlarining lozim darajada ehtiyotkorlik ko'rsatkichini baholashda oxirgi o'n ikki oyda jami hisobga olingan QQS summasining 10 foizdan ortiq qismi iqtisodiy mazmunga mos kelmaydigan (qalbaki, ko'zbo'yamachilik) operatsiyalarni amalga oshirgan korxonalardan hisobga olingan bo'lsa ballar yig'indisidan – 10 ball chegirish;

Soliq organlari tekshiruvdan oldingi tahlil hamda kameral soliq tekshiruvi natijasida aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilish holati soliq organlari axborot tizimlaridan foydalangan holda o'tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlil hamda kameral soliq tekshiruvi natijasida kamchilik aniqlanmaganligi yoki ularning bartaraf etilganligidan kelib chiqib baholash:

Amalda, Soliq organlari tekshiruvdan oldingi tahlil natijasida aniqlagan kamchiliklarning bartaraf etilish holati soliq organlari axborot tizimlaridan foydalangan holda o'tkazilgan tekshiruvdan oldingi tahlil natijasida kamchilik aniqlanmaganligi yoki ularning bartaraf etilganligidan kelib chiqib baholanadi.

O'zbekistonda tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingini joriy etish iqtisodiy muhitni yanada shaffof qilish, soliq intizomini kuchaytirish va tadbirkorlarni rag'batlantirishda muhim mexanizm bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra:

Yuqori barqarorlik reytingiga ega tadbirkorlar soni keskin oshgani, quyi reytingdagilar soni esa sezilarli kamaygani qayd etildi.

– Soliq hisobotlarini o'z vaqtida taqdim etayotgan va soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarayotgan korxonalar soni ortib bormoqda.

– Xorijiy tajribadan farqli jihat sifatida O'zbekistonda reyting natijalari tadbirkorlarga moliyaviy imtiyozlar, subsidiyalar va soliq engilliklari berishda asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tizimni takomillashtirish maqsadida:

1.Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish mezonlarini yanada rivojlantirish;

2.Yolg'on ma'lumot taqdim etgan yoki qalbaki operatsiyalar amalga oshirgan sub'ektlarni baholashda qat'iy cheklovlar joriy qilish;

3.Yangi tashkil etilgan korxonalarni baholashda differentsial yondashuvni qo'llash taklif etiladi.

Barqarorlik reytingi mamlakatda tadbirkorlik muhitini rivojlantirish, shaffoflik va raqobatbardoshlikni ta'minlashda strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-39-son qarori (23.01.2024 yil).

2. Vazirlar Mahkamasining Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi

VM-55-son qarori (30.01.2024 yil).

3. Tadbirkorlik sub'ektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferentsiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-193 qaror (24.05.2024 yil).

4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 75-moddasi.

5. Nutfulloev.N.G' (2024) O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va hududlardagi tadbirkorlik muhitiga ta'siri

6. Nurmatov Sh.R. (2024) O'zbekistonda tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish masalalari Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil jurnali.

7. Davranov I.J (2024) Tadbirkorlarning barqarorlik reytingini joriy qilish orqali soliq risklarini boshqarish bilan yashirin iqtisodiyotni qisqartirish «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali.

8. «Tadbirkorlik sub'ektlarining barqarorlik reytingi» yuz.uz sayti maqolasi (<https://yuz.uz/uz/news/tadbirkorlik-subyektlarining-barqarorlik-reytingi>).

9. Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.